

Mehridin NURIDDINOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktranti
 E-mail: nmismatullaevich@mail.ru
 Tel: +99893 6643633

Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi, A.Zamonov taqrizi asosida.

THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE INTERNET AS A SOURCE OF HISTORICAL INFORMATION

Annotation

This article examines various aspects of the development of the Internet as a source of historical information. It also examines how the Internet has made historical research more accessible and efficient.

Key words: internet, interdisciplinarity, information, hypertext, e-education, media technology, research, e-mail.

СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ИНТЕРНЕТА КАК ИСТОЧНИКА ИСТОРИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются различные аспекты развития Интернета как источника исторической информации. В нем также рассматривается, как Интернет сделал исторические исследования более доступными и эффективными.

Ключевые слова: Интернет, междисциплинарность, информация, гипертекст, электронное образование, медиатехнологии, научные исследования, электронная почта.

TARIXIY MA'LUMOTLARNI OLISH MANBAI SIFATIDA INTERNETNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada tarixiy ma'lumotlar manbai sifatida Internet rivojlanishining turli jihatlarini muhokama qilinadi. Shuningdek, Internet qanday qilib tarixiy tadqiqotlarni tadqiq etishda yanada qulay va samaraliroq bo'lgani ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Internet, fanlararo, axborot, gipermatn, elektron ta'lim, media-texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar, elektron pochta.

Kirish. Yaqin vaqtlargacha Internet "mikrokompyuter inqilobi" hodisalaridan biri sifatida faqat ma'lumot almashish vositasi, ba'zan yordamchi vosita sifatida qabul qilingan bo'lsa, endi Internet jamiyatning ko'plab sohalarida yangicha o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar mazmunini o'zgartirdi. Jamiyat va davlat haqidagi an'anaviy g'oyalarning mohiyati va formatini o'zgartirdi, bu orqali ilmiy bilimlar yangi mazmun bilan to'ldirilib borilmoqda[1].

Mavzuga chuqur kirishdan oldin Internet tarixiga nazar solsak. Internet elektron qurilmalar bilan bog'liq bo'lgan murakkab, rivojlanayotgan texnologiyalarning natijasidir. Masofaviy kompyuterlarni ulash tarmog'ini yaratish g'oyasi Internet paydo bo'lishidan ancha oldinroq yuz bergan edi. 1960-yillarda ARPANET (Advanced Research Projects Agency Network) - AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tarmoq zamonaviy Internetning prototipi edi.

1990-yillarda ARPANET World Wide Web (WWW) bilan birlashtirildi, bu HTML hujjatlari, fotosuratlar, audio va video fayllar kabi turli xil resurslarni qulay tarzda almashish imkonini berdi. Tarixiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan WWW-saytlar tez tarqala boshladi, bu esa qulay ma'lumot almashish imkonini berdi.

Olimlarning ta'kidlashicha, o'tgan 50 yil ichida informatika sohasida uchta inqilob sodir bo'ldi: birinchisi - "yirik" kompyuterlar (EHM) ning paydo bo'lishi, ikkinchisi – shaxsiy mikrokompyuterlarning yaratilishi, uchinchi - Internetning yaratilishi[2].

To'rtinchi inqilob bu sun'iy intellektning inson hayotiga tobora kuchli ta'sir etishida deb bilish mumkin. Shu kungacha biz Internetdan ko'proq ma'lumotlarni izlash maqsadida foydalangan bo'lsak, endi esa hayotimizning har bir jabhasida undan dasturulamal sifatida foydalanmoqdamiz.

1-jadval

Internet foydalanuvchilari soni bo'yicha mamlakatlar ro'yxati

№	Internet foydalanuvchilari	2005	2010	2017	2019	2021
	Dunyo bo'ylab foydalanuvchilar	16%	30%	48%	53,6%	59,5%
	Rivojlanayotgan mamlakatlardagi foydalanuvchilar	8%	21%	41,3%	47%	
	Rivojlangan mamlakatlardagi foydalanuvchilar	51%	67%	81%	86,6%	

2-jadval

Mintaqalar bo'yicha Internet foydalanuvchilari

№	Internet foydalanuvchilari	2005	2010	2017	2019
	Afrika	2%	10%	21,8%	28,2%
	Shimoliy va Janubiy Amerika	36%	49%	65,9%	77,2%
	Arab davlatlari	8%	26%	43,7%	51,6%
	Osiyo va Okeaniya	9%	23%	43,9%	48,4%
	MDH davlatlari	10%	34%	67,7%	72,2%
	Yevropa	46%	67%	79,6%	82,5%

Wikipediyaning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2020-yilga kelib Internet foydalanuvchilari soni 16 730 000 nafarga yetib, aholining qariyb 71,1 %i doimiy ravishda foydalanib kelmoqda. Bu ko'rsatkich kundan kunga ortganini ko'rsatmoqda.

Hech kimga sir emaski, Vatanimizda yashayotgan aksariyat fuqarolarimiz o'tmishning ko'p qismini ilmiy kitoblar, maxsus ilmiy nashriyotlarda bosib chiqariladigan maqolalar orqali emas, balki kino, OAV, internet, yoshi kattalarning esdalik xotiralari orqali bilishadi.

Bugun axborot kommunikatsiya texnologiyalarining izchil taraqqiy etishi jamiyatni modernizatsiya qilishda asosiy faktorlardan biri bo'lib, uning ta'sirini iqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning rivojlanishida ham ko'rish mumkin[3].

XX asrning 80-90 yillarida keng avj olgan axborotlashtirish jarayoni tarix faniga ham ta'sir ko'rsatdi. 90-yillarga kelib tarix fani tadqiqotlarida kompyuterlardan asosan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalanila boshlangan bo'lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo'llanila boshlandi. Manbalar matnlari va boshqa tasvirlar skanerlar yordamida kompyuter xotirasiga kiritila boshlandi, ayni vaqtda optik disklarning paydo bo'lishi bilan kompyuterlarning juda katta hajmga ega bo'lgan ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlari oshib bordi. Arxivlarda va boshqa hujjat saqlanadigan joylarda tadqiqotchilar noutbukdan foydalangan holda o'zlarining juda katta ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shaxsiy ma'lumotlar bazalarini yarata boshladilar. 90-yillarning oxirlariga kelib esa turli mamlakatlarda tarixiy tadqiqotlar sohasida 20 dan ortiq yirik ma'lumotlar banklari faoliyat ko'rsata boshladilar. Tarixiy tadqiqotlar sohasidagi axborotlashtirilishning tezkor jarayonlariga "elektron pochta" lar ham moslashib borib, "InterNET" tarmoqlari va undagi juda keng hajmli axborotlar bilan tanishish va ulardan foydalanish imkoniyatlarinnig yuzaga kelishi bilan axborot almashish borasida ham keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Keyingi ilmiy tadqiqot ishlarida endi "Internet" ham o'ziga xos "axborot manbasi" vazifasini bajara boshladi[4].

Avstriyalik olimlar keltirgan statistik ma'lumotlariga ko'ra, G'arbiy Evropa universitetlaridagi ilmiy tadqiqotlarning qariyb 30%i Internet ma'lumotlar bazasidan tarixshunoslik va manbaviy materiallar sifatida foydalanishadi. Bular: demografiya, ijtimoiy jarayonlar, iqtisodiyot, siyosat, sotsiologiya, psixologiya, axborotshunoslik va boshqalardir. Butunjahon Internet tarmog'i ilmiy bilim va madaniy merosni tarqatishda amaliy va iqtisodiy sharoitlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda internetning ulkan imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirish orqali ilmiy nashrlar mohiyatining sezilarli o'zgarishiga va mavjud ilmiy salohiyatni yuqorilatishda o'zgarishlarning boshlanishiga olib keldi[5].

Internetning keng qo'llanilishi ortidan ilmiy ma'lumotlarni olish yangilanmoqda, yangi ilmiy toifalar va tushunchalar paydo bo'la boshladi. Hayotimizda allaqachon "Elektron kutubxona", "elektron hujjat", "elektron hukumat", "Internet ta'limi", "elektron pochta" va shu kabi tushunchalar (iboralar) tanish bo'lib ulgurdi. Yangi e-learning, e-library, e-science, e-data, e-culture, e-government, e-business kabi neologizmlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Bugun har birimiz kundan kunga butunjahon o'rgimchak to'ridan foydalanamiz: elektron pochtdan foydalanamiz, kerakli ma'lumotlarni izlaymiz, ijtimoiy tarmoq orqali bir-birimiz bilan muloqotga kirishamiz.

Har sohadagi ma'lumotlarning ko'pligi va uning hamma uchun olish imkoniyatining mavjudligi, Internetdan foydalanishni kundan kunga oshiradi va uning tobora ommalashib borishiga zamin yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo tajribasidan ma'lumki, tarix sohasiga oid ma'lumotlarni elektronlashtirish masalasi bilan yuqori texnologiya va tajribali mutaxassislarga ega bo'lgan xususiy kompaniyalar ham shug'ullanadi. Bunday loyihalar haqida Yu.V. Dunaeva, L.I.Borodkin va I.M.Garskovalarning ishlaridan ma'lumot olish mumkin[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida keltirib o'tilgan olimlarning tadqiqotlari orqali tarix fani sohasida yangi tarixiy informatika fanining shakllanishi, shubhasiz, tarix fani taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Tarixiy informatika tarixiy tadqiqotlarda axborot texnologiyalarini qo'llashning umumiy yondashuvlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi: tarixiy ma'lumotlar bazalari va ma'lumotlar banklarini yaratishda axborot texnologiyalarini qo'llash; tizimli, matnli va grafik hamda boshqa manbalarni taqdim etish, tahlil qilish; tarixiy jarayonlarni kompyuterda modellashtirish; multimediyali texnologiyalari va tarix fani hamda ta'limni axborotlashtirishning boshqa yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish va qo'llashni o'z ichiga oladi[7]. Bu kabi sohalarda tarix faniga oid tadqiqotlarni olib borishda Internetning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Internetni rivojlantirish va uning resurslaridan foydalanish muammolari 1990-yillarning o'rtalarida rus tarixchilarining alohida e'tibor mavzusiga aylandi. Xususan, 1996-yildan buyon bu muammo "Tarix va kompyuter" asotsiatsiyasi (AIK) a'zolari tomonidan o'rganib kelinmoqda. V.N. Vladimirovning so'zlariga ko'ra, Internetning tarixchilar uchun ahamiyati haqidagi birinchi jiddiy savol AIKning 5-konferensiyasida bo'lib o'tdi[8]. Bu ko'pchilik tarixchilarning Internetdan samarali foydalanishni boshlashi tarixiy tadqiqotlar va ta'lim uchun Internetning roli va ahamiyatini muhokama qilishga olib keldi va tarix bo'yicha ilmiy hamda ta'lim resurslarini yaratishni boshlash vaqti kelganini anglatardi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Internetning jamiyatimizda tutgan o'rnini yanada oshirish va raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish masalalariga oid bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Raqamlashtirishdan maqsad-muddaomiz nima o'zi? Odamlarni rozi qilish, inson qadrini joyiga qo'yish, adolatni ta'minlash, – deydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev[9].

Bugungi kunda O'zbekistonda shunday Internet orqali o'rganishimiz mumkin bo'lgan axborot resurslari yaratilganki, bularning ko'lami kengayib bormoqda.

Shu jumladan, "InScience" jurnali g'ayratli olimlar tomonidan milliy va xorijiy ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan amaliy loyihalarning nazariy nuqtayi nazarlarini va amaliy natijalarining ommabopligini ta'minlaydigan ijtimoiy loyiha doirasida tashkil etilgan. Loyihaning maqsadi - yetakchi olimlar, ekspert-tahliliy va akademik doiralar uchun mustaqil munozaralar maydonchasini yaratish, shuningdek, dunyoning ilg'or tadqiqot va ta'lim muassasalarining innovatsion g'oyalarini muhokama qilishdir. "InScience" zamonaviy ilmiy yutuqlarni tezkor ravishda o'zaro almashish uchun www.Inscience.loc platformasida joylashtirilgan "Jamiyat va Innovatsiyalar" fanlararo ilmiy jurnali formatida elektron ommaviy axborot vositasini yaratdi. Hozirgi kunda ushbu nashr Index Copernicus, Research Bib, Directory of Research Journals Indexing, Advanced ScienceIndex, CrossRef, Academic resource index, Google Scholar kabi xalqaro ilmiy-metrik ma'lumotlar bazalari safiga kirishga muvaffaq bo'ldi[10].

Bundan tashqari, Raqamli tarix platformasi A-OT-2021-542 – "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarining ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan elektron platforma va multimediyali kompleksini yaratish" amaliy loyihasi doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, loyiha doirasida Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish, ularning xotirasini abadiylashtirish va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarining ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati yoritilgan elektron platforma va multimediyali kompleksini yaratish ko'zda tutilgan.

Mazkur grant loyihasi doirasida Qatag'on qurbonlari bo'lgan yurtdoshlarimiz haqida xotira kitobining mobil ilovasini yaratish, qatag'onga uchragan yurtdoshlarimiz va ularning xotirasini kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida elektron platforma yaratish, platformadan erkin foydalanish uchun elektron bazani shakllantirish hamda doimiy ravishda

yangilab borish, Qatag'on qurbonlari ma'naviy merosini yanada chuqur o'rganish va abadiylashtirish maqsadida manbalarning elektron platformasini shakllantirish va multimediya to'plamini yaratilmoqda[11].

Bundan tashqari, inLibrary – ochiq fan (Open Science) paradigmasi asosida qurilgan ilmiy elektron kutubxonasidir. Uning asosiy vazifalari ilm-fan va ilmiy faoliyatni ommalashtirish, ilmiy nashrlar sifatini jamoatchilik nazorati, fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish, zamonaviy ilmiy tadqiqot instituti hisoblanadi. inLibrary elektron kutubxonasining yana bir muhim vazifasi o'zbek ilm-fanining iqtiboslarini oshirish va bilim infratuzilmasini shakllantirishdan iboratdir[12]. Bugungi kunda inLibrary platformasida 16 500 dan ortiq maqolalar, 83 ta jurnal hamda 30 dan ortiq tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Yana bir muhim internet tadqiqot sayti www.tadqiqot.uz hisoblanadi. Ushbu internet resursining asosiy vazifasi 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan vazifalarni ilmiy tadqiqotlar yutuqlarini, ya'ni e'tirofga xizmat qiluvchi jurnallar faoliyatini joriy etish orqali fanni rivojlantirishdir. Jurnalda chop etilgan har bir maqolaga Xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olinadigan DOI (Crossref) raqami beriladi, hamda ushbu Jurnallar xalqaro indeks ma'lumotlar bazalariga kiritilgan.

Tahlillar va natijalar. Bu kabi Internet platformalarining O'zbekiston doirasida ko'plab mavjud bo'lishi va boyishi tarix fani sohasida ilmiy tadqiqotlarning yanada samarali tadqiq etilishiga olib keladi.

Internet asta-sekin rivojlanib, tarixiy ma'lumotlarning tobora muhim manbasiga aylanib ulgurdi. Bu esa tadqiqotchilar, o'qituvchilar, talabalar va boshqalarga tarixni turli nuqtayi nazardan o'rganish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Internet tadqiqotchilar va o'qituvchilarga tarixiy materiallar bilan ishlash, shuningdek, kutubxonalar, arxivlar, muzeylar, musiqa ma'lumotlar bazalari, fotosuratlar va boshqalar kabi turli manbalarning ma'lumotlariga kirish imkonini beradi. Bu tadqiqotchilarga tarixiy vaziyatni kengroq tushunish imkonini beradi.

Shuningdek, Internet tarix fani sohasida ilmiy izlanish olib boruvchi tadqiqotchilarga o'zlarining "virtual" arxivlarini yaratish imkonini beradi. Ular ma'lum bir hodisa, shaxs, holat bilan bog'liq ma'lumotlarni izlashlari yoki ma'lum bir mavzu bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plashlari mumkin.

Internet tarixni o'rganish uchun eng qimmatli va kuchli vositalardan biridir. 1990-yillarning boshlarida paydo bo'lganidan beri Internet shu darajaga yetdiki, u tarixiy ma'lumotlarning mavjud va qimmatli manbasiga aylandi[13].

Internet ko'plab olimlar, ishlab chiquvchilar, dasturchilar, ma'murlar, arxivchilar, o'qituvchilar, talabalar va boshqalarning hamkorligi natijasidir[14].

Internetning o'sishi bilan bog'liq yana bir eng muhim jihatlardan biri bu arxivlar, kutubxonalar, muzeylar, musiqa ma'lumotlar bazalari, fotosuratlar, audio yozuvlar, video yozuvlar va boshqa tarixiy ma'lumotlarning mavjudligidir. Bu kabi manbalarning bunday yaxshilanishi tezlik, qulaylik, yaxlitlik, foydalanuvchilarga qulay formatdagi yaxshilanishlar natijasidir[15].

Nihoyat, Google va Yahoo kabi qidiruv tizimlarining ortib borishi ham tarixiy ma'lumotlar manbai sifatida Internetning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Ushbu qidiruv tizimlari foydalanuvchilarga Internetda aniq tarixiy ma'lumotlarni tez va oson qidirish imkonini beradi[16].

Xulosa va takliflar. Bir so'z bilan aytganda, Internet O'zbekistonda olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlar uchun ham bebaho vositaga aylandi. Bu kutubxonalar, arxivlar, muzeylar, musiqa ma'lumotlar bazalari, fotosuratlar, audio yozuvlar va videolar kabi turli manbalardan ko'plab ma'lumotlarga kirish imkonini beradi. Nihoyat, qidiruv tizimlari foydalanuvchilarga Internetda aniq ma'lumotlarni tezda topishni osonlashtirdi. Shunday qilib, Internet tarixiy ma'lumotlarning bebaho manbai bo'lib, o'tmishni yanada chuqurroq tushunish uchun ijobiy jihatlarni alohida e'tirof etish joiz hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Internetdan keng foydalanish ilmiy bilimlarni tez va samarali tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa o'z navbatida tadqiqotchi o'rganayotgan mavzusining turli xil ma'lumotlar bilan solishtirish imkoniyatini beradi, bu esa tadqiqotning o'sishiga yordam beradi, ilmiy bilimlarning ko'lamini kengaytiradi hamda keng qamrovda ilmiy izlanish olib borilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Алимгазинов К.Ш. Интернет и историческое знание: от информатизации к новым горизонтам исследований. Умшаев А.Н. Интернет как новая информационная среда исторической науки. Дисс... на соискание к.и.н. автореф. – 2015. –С.102-103. Интернет и историческое знание: от информатизации к новым горизонтам исследований (cyberleninka.ru)
2. Умшаев А.Н. Интернет как новая информационная среда исторической науки. Дисс... на соискание к.и.н. автореф. – 2002. –С.52.
3. Алимгазинов К. Современные технотронные источники: информационный анализ исторических гипертекстов. Монография. - Алматы: «Изд-во Елтаным», 2014. –С. 3.
4. Илхомов З.А. Тарих фани методологияси. –Тошкент.: 2013. –Б. 174-175.
5. Алимгазинов К. Современные технотронные источники: информационный анализ исторических гипертекстов. Монография. - Алматы: «Изд-во Елтаным», 2014. –С. 107.
6. Тоғаев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври тарихий реконструкция масалалари (жанубий Ўзбекистон мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2021. –Б. 20.
7. Умшаев А.Н. Интернет как новая информационная среда исторической науки. Дисс... на соискание к.и.н. автореф. – 2002. –С.64.
8. Умшаев А.Н. Интернет как новая информационная среда исторической науки. Дисс... на соискание к.и.н. автореф. – 2002. –С.145.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг рақамлаштириш бўйича 2023 йилги вазифалар ва режаларга бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутқи. 22.02.2023. // <https://president.uz/uz/lists/view/5943>
10. <https://inscience.uz/index.php/socinov/about>
11. <https://raqamlitarix.uz>
12. <https://inlibrary.uz>
13. Whitehouse, D., & Williams, R. Digital history: A guide to gathering, preserving and presenting the past on the Web. London: Routledge. 2018. –P. 132.
14. Laudon, K., & Traver, C. G. E-commerce: Business, Technology, Society (12th ed.). Boston: Pearson Education. 2017. –P. 45.

15. Schofield, B., & Smith, K. The role of technology in historical research. *History Today*, 67(7), 2017. –P. 18-21.
16. Turban, E., King, D., Lee, J., Liang, T.-P., & Turban, D. *Electronic commerce: A managerial and social networks perspective* (9th ed.). Boston: Pearson Education. 2016. –P. 58.